

TA'LIM SOHASIDA BOSHQARUV SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Mamashokirov Muhammadshukur Abdumuxtorovich

"Andijon taraqqiyot" nodavlat umumta'lim maktabi

Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha direktor maslaxatchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligi, boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorligining o'zaro ta'siri va omillari, ta'lim muassasasi samaradorligini baholash ko'rsatkichlari, kadrlar tayyorlovchi kafedralarning ustuvorliklari masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqobatbardosh, boshqaruv jarayoni, boshqaruv samaradorligi, samaradorligini aniqlash, raqobatbardosh kadrlar, baholash usullari, muqobilik darajasi.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы эффективности управления в высших учебных заведениях, взаимодействия и результативности системы управления и процесса управления, показатели эффективности образовательного учреждения, приоритеты кафедр.

Ключевые слова: конкурентоспособность, управление, эффективность управления, результативность, конкурентоспособность, методы оценки, альтернативный уровень.

Abstract: The article discusses the effectiveness of governance in higher education institutions, the interaction and effectiveness of the management system and management process, the indicators of the effectiveness of the educational institution, the priorities of the chairs.

Key words: competitiveness, governance, management efficiency, effectiveness, competitiveness, evaluation methods, alternative level.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar va kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Yoshlarimizga munosib ta'lim berish, ularning ilm-fanga bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishimiz, o'rta va oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o'quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak". Iqtisodiyotni innovatsion talablar asosida taraqqiy ettirishda aholining bilimlilik darajasini oshirish, ishlab chiqarishning intellektual salohiyati, chet el investitsiyalari ko'lamini kengaytirish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni

rivojlantirish, o'z navbatida, yangi iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar, shu jumladan, ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi [1].

Albatta, bu kabi muammo va kamchiliklarni bartaraf etmasdan turib, oliy ta'lim tizimida zamonaviy bilim va tayyorganlikka ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ijobiy hal etish mushkuldir. Mamlakatning rivojlanish istiqbolini, birinchi navbatda, kadrlar salohiyati va undan foydalanish darajasi belgilab beradi. Respublikamizda olib borilgan islohotlar jarayonida kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratildi. Oliy ta'lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini ta'minlash maqsadida jahon ta'lim standartlari talablariga mos keluvchi mutaxassislarni tayyorlash va ilmiy salohiyat darajasini ko'tarish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganib, respublikamiz davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda, ilmiy tadqiqotlar olib borish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligini yanada rivojlantirish asosida ularning sifat darajasini ko'tarish va samaradorligini ta'minlash lozim

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida nazarda tutilgan ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini ishlab chiqish ham dolzarbdir. Oliy ta'lim muassasalari boshqaruv jarayoni samaradorligini erishilgan amaliy natijalarni tahlil qilish asosida baholash, ya'ni quyidagi muammolarni hal etish orqali ularni takomillashtirish lozim bo'ladi:

- muassasadagi boshqaruv jarayoni va amaliy faoliyat natijalari o'rtasidagi bog'liqlik jihatlarini aniqlash;
- oliy ta'lim muassasasi tashkiliy tuzilmasidagi kafedrlar misolida faoliyat natijalariga ko'ra boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashni amalga oshirish, bunda boshqaruv jarayoni bilan bog'liq mezonlarni ajratish;
- kafedrlar faoliyatini natijalari asosida boshqaruv samaradorligini baholashda ko'p mezonli kompleks baholash usullarini qo'llash va olingan natijalarni tahlil qilish.

Ushbu masalalarni hal qilish ularning ilmiy jihatdan asoslash uchun quyidagilar ilgari suriladi:

- oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayoni samaradorligi erishilgan amaliy natijalarda bevosita aks etadi;
- boshqaruv jarayoni bilan bog'liq mezonlar to'g'ri tanlanganda erishilgan amaliy natijalarini tahlil qilish asosida samaradorlikni baholash hamda natija va boshqaruv qarorlarini qabul qilish orasidagi teskari aloqani samarali yo'lga qo'yish mumkin;
- boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash yo'llari amaliy faoliyat natijalarini baholashning ko'p mezonli va kompleks baholash usullari qo'llanganda boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash ishonchli natijalarni beradi;



• kafedralar, fakultetlar amaliy faoliyat natijalarini tahlil qilish asosida boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash ular faoliyatining faollashuviga, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, raqobat muhitining kuchayishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan T.I. Shamov, P.I. Tretyakov, A.V. Tebenkin, A.N. Asaul, M.V. Nikitin, A.N. Boeva kabi olimlarning ilmiy ishlari ta'lim tizimini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan [2].

Mamlakatimiz olimlarining tadqiqotlarida ham ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalarining ayrim jihatlari o'rganilgan. Xususan, B.N. Navruz-Zoda [3], Sh.Sh. Zahidova [4], D.X.Nabiev [5], A.O.Ergashov [6], A.S.Kucharov [7], T.Z.Teshaboev [8], M.X.Saidov [9], Sh.E.Qurbonov [10], Q.Q.Qurolov [11] va boshqalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Boshqaruv samaradorligi tushunchasi boshqaruv tizimi va boshqaruv jarayoni samaradorliklarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shy o'rinda boshqaruv tizimi samaradorligi va boshqaruv jarayoni samaradorligi tushunchalarining o'zaro mushtarak va farqli jihatlariga e'tibor qaratamiz.

Boshqaruv jarayoni samaradorligi ham boshqaruv samaradorligining xususiy holi bo'lib, uni sub'ektning boshqariluvchi ob'ektga ta'sir ko'rsatish natijasini ifodalaydi. Uni miqdor va sifat jihatidan baholash mumkin.

“Samaradorlik” tushunchasi menejment va boshqaruv fanlarida turli bahs va munozaralarga sabab bo'lib keladi. Samaradorlikning umumiy nazariyasi mavjud bo'lmaganligi bois ushbu yo'nalishdagi barcha urinishlar hozirgacha kutilgan natijaga olib kelmadi. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o'z xususiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ammo ta'limda bugungi kunda bunday ko'rsatkichlar yo'q. Samaradorlik tushunchasini ochib berishda faoliyat unumdorligi tushunchasini kiritishadi. Sh.Qurbonov va E.Seytxalilovlarning fikricha “Unumdorlik qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir. Ular ta'limning boshqa ta'lim muassasiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim muassasida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi. Masalan, ta'lim muassasasi mustahkam moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim muassasasidagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim muassasasidagiga qaraganda ta'lim sifati yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lim muassasasi o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'li foydalanayotganligida ko'rinadi[4]. Boshqaruv tizimining tashqi samaradorligi jamiyat, davlat va ish beruvchilarning maqsadiga erishuvni nazarda tutadi. Boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash qarorlar qabul qilishning asosiy mezoni hisoblanadi. Shu tufayli iqtisodiyot va boshqaruvda samaradorlik tushunchasiga katta e'tibor qaratiladi.

Umuman ta'lim tizimida boshqaruv jarayonida yuqori natijalarga erishish uchun kuzatish, suhbat, modellashtirish, tahlil, sintez, ekspert baholash, ierarxik tahlil

usullaridan foydalaniladi. Tavsiya qilingan ta'lim muassasalari boshqaruv jarayoni samaradorligini baholashda ko'p mezonli tahlil usulini qo'llash oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari boshqaruvini yangicha usullar bilan boyitadi. Ta'lim muassasalari boshqaruvi samaradorligini baholashda ierarxiyalar tahlili usuli asosidagi yondashuv maqsadga muvofiq qarorlar qabul qilishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi va boshqaruv jarayonining takomillashuviga olib keladi. Bu uning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi.

Ta'lim muassasasidagi boshqaruv jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib o'tamiz. Boshqaruv jarayoni samaradorligi juda ko'p omillarga bog'liq. Biz ularni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratamiz. O'z-o'zidan ma'lumki, ichki omillar faqatgina ta'lim muassasasining ichki shart-sharoitlari bilan bog'liq. Ularga xodimlar va professor-o'qituvchilarning malakasi, muassasaning moddiy ta'minlanganligi, tashkilot madaniyati kabilar kiradi. Ta'lim muassasasi boshqaruv samaradorligiga tashqi omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Ushbu omillarga muassasaning joylashgan o'rnini, mahalliy boshqaruv organlarining siyosati, ijtimoiy muhit va boshqalar kiradi.

Muassasaga ko'rsatadigan ta'siriga ko'ra ijobiy va salbiy omillarni ajratish mumkin. Ijobiy omillar o'quv muassasining boshqaruv samaradorligining ortishiga xizmat qilsa, salbiy omillar samaradorlikning ijobiy o'zgarishiga to'sqinlik qiladi. Shunday omillar borki, ular istalgan ta'lim muassasining boshqaruv samaradorligiga bir xilda ta'sir qiladi. Bunday universal omillar qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- quyilgan maqsadlarning sifati;
- maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya'ni, ularning qo'yilgan maqsadga erishish vositalari bilan muvofiq kelishi;
- joriy holatni to'g'ri baholash;
- muassasa rahbari va xodimlarini qo'yilgan maqsadlar yo'lida motivatsiyalash;
- o'quv muassasasi rahbarining salohiyati va shaxsiy sifatлари;
- qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat hamda kollegial boshqaruv organlarining ishtiroki.

Shuningdek, ta'lim muassasalari boshqaruv tizimida boshqaruv jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilishi, uning samaradorligi tushunchalarini aniq ajratilishi, uning mazmuni va mohiyati ochib berilishi, ta'lim muassasalarida ierarxiyalar tahlili usuli asosidagi kafedralar reytingi modeli ishlab chiqilishi, uning boshqaruv jarayoni samaradorligini baholash usullariga asoslanishi ta'lim muassasasi boshqaruv samaradorligini baholashda yuqori natijalarga erishishda ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv samaradorligi, deganda faoliyatning natijaviylikka erishilganligi tushuniladi, ammo samaradorlik darajasini faqat natijaviylik asosida aniqlash murakkab sanaladi. Chunki samaradorlik, deganda boshqaruv faoliyatining umumiy harakati, shuningdek, ma'lum harakatlar natijasida maqsadga erishilganligi tushuniladi. Shuning uchun boshqaruv samaradorligini aniqlashda quyidagilarga ahamiyat berish talab etiladi: boshqaruv maqsadi; boshqarish salohiyati; boshqaruv mehnatining xususiyatlari;

boshqaruvga bo'lgan sarf-xarajatlar, boshqaruv vazifalari, ularni tashkil etish texnologiyasi hamda bajariladigan ishlar hajmi va boshqalar kiradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimi iqtisodiyot yo'nalishlari bitiruvchilarining hududlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sirini baholash, ta'lim muassasalari boshqaruv jarayoni samaradorligi va amaliy faoliyat natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, ta'lim sohasida iqtisodchi kadrlar tayyorlash hamda uni boshqarish bo'yicha optimal qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv jarayoni samaradorligi ta'lim muassasasining ta'lim xizmatlari bozoridagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi.

Aynan samarali boshqaruv jarayoni muassasa va tashkilotning barcha resurslaridan to'liq foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Shu jihatlarni hisobga olib, ta'lim tizimida boshqaruv jarayoni va uning nazariy asoslari, shuningdek, uning samaradorligi tushunchasi, baholashning nazariy va amaliy jihatlari hamda baholash ko'rsatkichlari aniqlandi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida iqtisodiyot yo'nalishidagi kafedralar boshqaruv jarayoni samaradorligining integral baholash uslubini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi hamda boshqaruv jarayoniga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, eng yuqori ustunlik darajasini ko'rsatish, iqtisodiyot kafedralarining o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati bo'yicha boshqaruv samaradorligini baholash imkonini berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Salaydinovna, R. G. (2022). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF NON-STANDARD WAY OF THINKING IN STUDENTS. *European science review*, (3-4), 17-20.
2. Rahmonova Gulchehra Salaydinovna (2022). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF NON-STANDARD WAY OF THINKING IN STUDENTS. *European science review*, (3-4), 17-20.
3. Raxmonova, G. S. (2022). O'QUVCHILARDA NOSTANDART TAFAKKUR TARZINI RIVOJLANTIRISHNING REFLEKSIV MEKANIZMLARI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(9), 542–549.
4. Raxmonova, G. (2020). ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЈАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 4(4).
5. Rahmonova, G. S. (2022). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF DEVELOPING NON-STANDARD THINKING IN STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (4), 565-572.
6. RAXMONOVA, G. MA'NAVIYAT-JAMIYAT RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *ЭКОНОМИКА*, 159-161.

7. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati davlat rahbarining 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // www.lex.uz, 2019 yil 28 dekabr.
8. Qahhorov O.S. Ta'lim tizimida iqtisodchi kadrlarni tayyorlashning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Dissertatsiya avtoreferati. iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Toshkent, 2017. 6-7 betlar.
9. Navruz-Zoda B.N. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida sifat ta'minoti. - T: Xarizma design, 2008. - 245 b.
10. Zahidova Sh.Sh. Oliy ta'lim xizmatlari bozorining amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish (O'zbekiston materiallari asosida). Iqt.f.n. ...diss. avtoref. – T.: TMI, 2012.;
11. Nabiev D.X. Sovershenstvovanie upravleniya marketingom obrazovatel'nykh uslug v usloviyax modernizatsii ekonomiki. Avtoref. ... dokt. ekonom, nauk. – T.: TDIU, 2009.
12. Ergashev A.O. Ta'lim tizimining iqtisodiy boshqaruv asoslarini takomillashtirish (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimimisolida). Iqt.f.n. ...diss. avtoref. – T.: TDIU, 2006.
13. Kucharov A.S. Tadbirkorlik sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini takomillashtirish, Iqt.f.d. ...diss.avtoref. – T.: 2006;
14. Teshaboev T.Z. Oliy o'quv yurtlarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo'llari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. 129 b.;
15. Saidov M.X. Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T.: Moliya, 2002, - 169 b.
16. Kurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatni boshqarish. - T.: Turon-Ikbol, 2006. - 592 b.
17. Qurollov Q. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimining takomillashuvi qonuniyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2016. -8 bet.

